

## HAMSHIRALIK ISHI FANINI O'QITISHDA KREATIV YONDASHUVNING ZAMONAVIY ISTIQBOLLARI

**DJumabayev Ergash Ataxanovich**

*Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'quv ishlari bo'yicha  
direktor o'rinbosari*

**Raximova Sevinchoy Habibulla qizi**

*Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hamshiralik ishi fanini o'qitishda kreativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, simulyatsion mashg'ulotlar, raqamli platformalar va interfaol metodlarning ahamiyati ochib beriladi. Kreativ yondashuvning bo'lajak hamshiralarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va amaliy tayyorgarlik sifatini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *hamshiralik ta'limi, kreativ yondashuv, simulyatsiya, raqamli ta'lim, pedagogik innovatsiya.*

**Аннотация:** *В статье проведён углублённый анализ теоретических и практических основ креативного подхода в обучении дисциплине «Сестринское дело». Освещена роль инновационных педагогических технологий, симуляционного обучения и цифровых платформ. Обосновано влияние креативного подхода на формирование профессиональных компетенций и качество практической подготовки.*

**Ключевые слова:** *сестринское образование, креативный подход, симуляционное обучение, цифровые технологии.*

**Abstract:** *This article presents an in-depth analysis of the theoretical and practical foundations of a creative approach in teaching Nursing. The importance of innovative pedagogical technologies, simulation training, and digital platforms is highlighted. The impact of creative approaches on professional competence development and practical training quality is justified.*

**Keywords:** *nursing education, creative approach, simulation training, digital technologies.*

### KIRISH

XXI asr sog'liqni saqlash tizimi o'zining murakkabligi va dinamik xususiyati bilan ajralib turadi. Global pandemiyalar, texnologik inqilob, tibbiyotning xususiylashuvi va aholining qarishi kabi omillar hamshiralik kasbiga bo'lgan talabni tubdan o'zgartirib yubordi. Hamshiralalar endilikda shunchaki shifokor ko'rsatmalarini bajaruvchi texnik xodim emas,

balki mustaqil qaror qabul qiluvchi, jamoaviy ishlay oluvchi va parvarish jarayonini boshqaruvchi asosiy shaxslardan hisoblanadi.

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida sog'liqni saqlash tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy tibbiyot tezkor qaror qabul qila oladigan, klinik fikrlashga ega, stress holatida to'g'ri harakatlana oladigan hamshiralarni talab etadi. Shu bois hamshiralik ta'limini faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo'yish yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasida ham sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorga yo'naltirilgan parvarish modeliga o'tish jarayoni malakali hamshiralik kadrlarini tayyorlashni ustuvor vazifaga aylantirdi.

An'anaviy ta'lim usullarida o'quvchilar asosan tayyor bilimlarni yodlash orqali o'zlashtiradi. Bu esa real klinik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli ta'lim tizimida kreativ, innovatsion, interfaol yondashuvlarni joriy etish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

#### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda hamshiralik ta'limi asosan kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etiladi. Benner o'z tadqiqotlarida hamshiralarning professional rivojlanishini bosqichma-bosqich model asosida izohlaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamshiralik ta'limida simulyatsion mashg'ulotlar muhim o'rin tutishini e'tirof etadi.

An'anaviy hamshiralik ta'limi ko'pincha nazariy bilimlarni o'zlashtirish va standart amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu, albatta, zaruriy asosdir. Biroq, real klinik vaziyatlar har doim ham darslikdagi qoliplarga mos kelavermaydi. Bemorning holati birdan o'zgarishi, resurslarning cheklanganligi yoki etik dilemmalar yuzaga kelishi kabi noodatiy (nostandart) vaziyatlarda hamshira tanqidiy fikrlash va ijodiy (kreativ) yechimlar topish qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Agar ta'lim faqat yod olishga qaratilgan bo'lsa, o'quvchi yangi, kutilmagan muammoga duch kelganda qiynaladi. Shuning uchun, hamshiralik ta'limining asosiy vazifasi – o'quvchilarda axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, baholash va amaliyotga ijodiy tadbiriq etish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, qiyosiy solishtirish, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajribalar tibbiyot texnikumi o'quvchilari ishtirokida olib borildi.

Hamshiralik ta'limida kreativ o'qitish metodlari

1. Simulyatsion mashg'ulotlar – klinik holatlarni xavfsiz sharoitda mashq qilish imkonini beradi.

2. Case-study – real bemor holatlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

3. Rolli o'yinlar – muloqot va etik kompetensiyani oshiradi.

4. Raqamli ta'lim platformalari – masofaviy o'qitishni ta'minlaydi.
5. Loyiha asosida ta'lim – o'quvchini mustaqil ilmiy izlanishga yo'naltiradi.

Kreai yondashuvning ta'lim sifati va kasbiy kompetensiyaga ta'siri

Pedagogik tajribalar natijasiga ko'ra, kreativ metodlar asosida tahsil olgan o'quvchilarning 70–80 foizida klinik va tanqidiy fikrlash darajasi oshgani kuzatildi. Amaliy mashg'ulotlarga moslashuv tezligi sezilarli darajada yuqoriladi.

Xalqaro tajriba

AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlarida VR va AR texnologiyalar asosida simulyatsion markazlar faoliyat yuritmoqda. O'quvchilar murakkab jarrohlik va reanimatsion holatlarni virtual muhitda mashq qilmoqda.

Mavjud muammolar

Moddiy texnik bazaning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi, simulyatorlar kamligi asosiy muammo hisoblanadi.

Tavsiyala

Kreativ ta'limni joriy etishda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, pedagoglar malakasini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini jalb etish tavsiya etiladi.

Kreativ yondashuvni ta'limga tatbiq etish quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi: Kreativ fikrlaydigan hamshiralalar shaxsiy tashabbuskorlikni namoyish etib, kasalxona va birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida innovatsion parvarish modellarini joriy eta oladi. Ta'limda rivojlangan kreativlik, kelajakda hamshiralik fanida muhim tadqiqotlar va amaliy kashfiyotlar qilishga undaydi, parvarish sifatini ilmiy asosda yaxshilashga yordam beradi. Hamshiralik ta'limida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish xalqaro akkreditatsiya standartlarida ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimiga bu tajribani tatbiq etish kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro darajaga ko'taradi. Kreativ yondashuvni nafaqat bakalavriat, balki amaliyotdagi hamshiralarning malaka oshirish kurslariga ham tatbiq etish zarur bo'ladi.

#### **XULOSA**

Kreativ yondashuv hamshiralik ta'limining sifatini oshirib, kelajak tibbiyot mutaxassislarini yuqori saviyada tayyorlash imkonini beradi.

Hamshiralik ishi fanini o'qitishda kreativ yondashuvni joriy etish – bu shunchaki pedagogik yangilik emas, balki zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining fundamental talabidir. Kreativlik malakasi murakkab klinik sharoitlarda yuqori darajada moslashuvchanlikni ta'minlaydi va bemorlar xavfsizligini oshiradi. Kreativ ta'lim strategiyalarini samarali tatbiq etish uchun o'quv dasturlarini faol metodlarga moslashtirish, o'qituvchilarni maxsus tayyorlash va innovatsion texnologik resurslarni yaratish lozim. Kreativlikni rivojlantirish orqali biz nafaqat bilimli, balki har qanday murakkab vaziyatda bemorga insonparvar, samarali va innovatsion yordam ko'rsata oladigan kelajak hamshiralarni tayyorlaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. K. O'. Zokirova, D. O'. To'xtamatova. Hamshiralik ishi asoslari. Toshkent. "Ilm Ziyo" - 2017
2. S. Q. Inomov. Hamshiralik ishi asoslari. (III-nashr). Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashryoti. Toshkent – 2003.
3. T.Yu. Umarova. I.A.Qayumova. M.Q.Ibragimova. Hamshiralik ishi. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashryoti. Toshkent – 2003.
4. G'aniyev O. Innovatsion pedagogika, 2023.